

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Mamlakatimizda sog'lioni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish, sohaga ilg'or va raqamli texnologiyalar hamda sifat menejmentini joriy etish, tibbiyot muassasalari imkoniyatlardan to'liq foydalanish maqsadida:

1. Sog'lioni saqlash vazirligining markaziy apparati tuzilmasiga sog'lioni saqlash vazirining:
tibbiy yordamni tashkillashtirishga;
ixtisoslashgan tibbiy xizmat va yangi texnologiyalarni joriy etishga;
onalik va bolalikni muhofaza qilish hamda reproduktiv salomatlikni ta'minlashga;
strategik va raqamli tibbiyotni rivojlantirishga;
moliya, investitsiya va moddiy ta'minotga mas'ul o'rribosar lavozimlari kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent shahrida joylashgan barcha davlat tibbiyot muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish, ularda zamonaviy profilaktika, diagnostika va davolash uslublarini joriy qilish, xalqaro standartlardan qolishmaydigan tibbiyot infratuzilmasini yaratish maqsadida sog'lioni saqlash vazirining o'rribosari — Toshkent shahar sog'lioni saqlash bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimi kiritilsin.

3. Sog'lioni saqlash vazirining o'rribosari — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi bosh direktori lavozimi tugatilsin.

4. Quyidagilar:

Sog'lioni saqlash vazirligi tizimining tashkiliy tuzilmasi **1-ilovaga** muvofiq;

Sog'lioni saqlash vazirligi markaziy apparatining tuzilmasi **2-ilovaga** muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi tuzilmasi, viloyatlar sog'lioni saqlash boshqarmalari namunaviy tuzilmalari va Toshkent shahar sog'lioni saqlash bosh boshqarmasi tuzilmasi **3 — 5-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

Davlat budgeti hisobidan moliyalashtiriladigan Sog'lioni saqlash vazirligi markaziy apparati boshqaruva xodimlarining cheklangan soni 139 nafar, sog'lioni saqlash hududiy boshqaruva organlari xodimlarining cheklangan soni — 423 nafar etib belgilansin.

Oldingi tahririga qarang.

Sog'lioni saqlash vaziriga, zarur hollarda, Sog'lioni saqlash vazirligi markaziy apparati, uning hududiy organlari, shuningdek, idoraviy tashkilotlarining tuzilmalariga xodimlarning belgilangan umumiyl cheklangan soni hamda davlat budgetidan ajratilgan mablag'lar doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

(4-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydag'i PF-6221-son Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2021-y, 06/21/6221/0428-son)

Belgilansinki, mazkur band bilan Sog'lioni saqlash vazirligi markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi, viloyatlar sog'lioni saqlash boshqarmalari va Toshkent shahar sog'lioni saqlash bosh boshqarmasi tuzilmalariga qo'shimcha ravishda kiritiladigan shtat birliklarini saqlash hamda mehnatga haq to'lash shartlarining o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar Innovatsion sog'lioni saqlash milliy palatasi, shu jumladan uning hududiy bo'linmalari shtat birliklarini maqbullashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

5. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'lioni saqlash vaziri va viloyatlar sog'lioni saqlash boshqarmalari boshliqlari sog'lioni saqlash vaziri tomonidan tegishlichcha Qoraqalpog'iston

Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi va viloyatlar hokimlari bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi;

hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, hududiy bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari bosh shifokorlari, hududiy tibbiy diagnostika markazlari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari rahbarlari sog'liqni saqlash vaziri hamda tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan kelishilgan holda tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari va Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi boshliqlari tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

6. Bosh vazir o'rribbosari B.A. Musayev bir oy muddatda:

a) Sog'liqni saqlash vazirligi tizimiga kiritilayotgan o'zgarishlardan kelib chiqib, uning tarkibiy bo'linma rahbar va xodimlari tarkibini qayta ko'rib chiqsin va ularni professional bilim darajasiga ega bo'lgan, malakali xodimlardan shakllantirish chorasini ko'rsin;

b) Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi shtat birliklarini maqbullashtirish hisobiga:

respublika hududlarida aholining soni va kasalliklar uchrashi tahlillari asosida tibbiyot muassasalarini barpo etish;

tibbiyot tashkilotlarini loyihalashtirish, qurish, jihozlash ishlarini amalga oshirish;

sog'liqni saqlash tizimida biznes jarayonlar tahlili va IT-reinjiniringini rivojlantirish;

Oldingi tahrirga qarang.

tibbiyot muassasalari moliyaviy barqarorligiga ko'maklashish hamda tibbiy turizmni rivojlantirishni tashkil etishga yo'naltirilgan Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni loyihalashtirish markazini tuzish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini kiritsin.

(6-band "b" kichik bandining beshinchchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-fevraldag'i PQ-5000-son qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.02.2021-y., 07/21/5000/0139-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(6-bandning sakkizinchchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi 2021-yil 5-maydag'i PF-6221-son Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2021-y., 06/21/6221/0428-son)

7. Belgilab qo'yilsinki:

Oldingi tahrirga qarang.

Sog'liqni saqlash vazirligi markaziy apparati va sog'liqni saqlash hududiy boshqaruv organlari xodimlariga 2021-yil 1-iyundan boshlab Davlat budgeti mablag'lari hisobidan quyidagi miqdorda ko'p yillik ishlaganlik uchun har oylik ustama to'lanadi (rag'batlantirish koeffitsiyentini inobatga olgan holda lavozim maoshiga nisbatan koeffitsiyentlarda): 1 yildan 3 yilgacha — 0,3, 3 yildan 5 yilgacha — 0,6, 5 yildan 10 yilgacha — 0,8, 10 yildan 15 yilgacha — 1,0, 15 yildan 20 yilgacha — 1,2, 20 yildan yuqori — 1,5. Bunda, ko'p yillik ishlaganlik uchun ustama olish huquqini beruvchi ish staji Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan tartib asosida amalga oshiriladi;

(7-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydag'i PF-6221-son Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2021-y., 06/21/6221/0428-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(7-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi 2021-yil 5-maydag'i PF-6221-son Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2021-y., 06/21/6221/0428-son)

8. Sog'liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda aholiga keng ko'lamda birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish, tibbiy profilaktika va sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sog'lom ovqatlanish, sog'liqni saqlash sohasida moliyalashtirish tizimining samaradorligini oshirish va bozor mexanizmlarini kengaytirish, davlat tibbiy sug'urtasini joriy etish yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga [6-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

10. Sog'liqni saqlash vazirligi:

bir oy muddatda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin;

Adliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari B.A. Musayev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV


Toshkent sh.,
2020-yil 2-oktabr,
PQ-4847-son

Oldingi tahririga qarang.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2020-yil 2-oktabrdagi
PQ-4847-son qaroriga
1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining

TASHKILIY TUZILMASI






(1-ilova matni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-fevraldagagi PF-78-soni Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.02.2022-y., 06/22/78/0163-son)

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2020-yil 2-oktabrdagi
PQ-4847-soni qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi markaziy apparatining TASHKILIY TUZILMASI

Oldingi tahririga qarang.



Davlat budgeti hisobidan moliyalashtiriladigan boshqaruva xodimlarining cheklangan soni — 139 nafar.

* Markaziy apparatning umumiyy shtatlari soniga kirmaydi.